

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI PEDAGOGIKA FAKULTETI

“Pedagogika.Psixologiya”
fanidan

« Oilada tarbiya asoslari»

mavzusida

REFERAT

Bajardi:

**Pedagogika va psixologiya
301guruh talabasi Mavlonova M.**

Qabul qildi:

Sabirova Ch.

Urganch - 2012

Mavzu: Oilada tarbiya asoslari.

Reja:

- 1.Oila haqida tushuncha.
- 2.Oila tarbiyasi mazmuni va mohiyati.
- 3.Oila va uning vazifalari,turlari.
- 4.Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar.

Kirish

Inson haqida uning mehnati va turmushi, ma'naviy taraqqiyoti to'g'risida g'amxo'rlik qilish mustaqil O'zbekistonning oliy maqsadidir. Ma'lumki, kishi kamoloti. uning inson sifatida havotga, ijtimoiy turmush va mehnatga, madaniy va ma'naviy boyliklarga bo'lgan munosabati asosan oilada shakllanadi. Yoshlarga ta'lim-tarbiya berish har bir ota-onaning, o'qtuvchi- tarbiyachining Vatan oldidagi muqaddas burchidir. Davlatimiz tomonidan chiqarilgan barcha qaror va yo'l-yo'riq ko'rsatmalarda mehnatkashlar ommasining ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishini ta'minlovehi tavsiyalar berib borilmoqda.

Kelajagimiz bo'lmish yosh avlod tarbiyasi va uning taraqqiyoti davlat ahamiyatiga molik masala hisoblanadi. O'tmishda qabul qilingan qonun va qoidalaridan farqli o'laroq Respublikamiz Oliy Kengashi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida oila va oiladagi ta'limga asos soldi (16-modda). O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ta'kidlanganidek: «Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar. Davlat va jamiyat yetim bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi, bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatlarini rag'batlantiradi. Layoqatli farzandlar o'z ola-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar». Oilaviy tarbiya deganda ota- onalarning o'z hayotlari, turmush tarzlari asosida bola shaxsida ilmiy dunvoqarash asoslari, ijtimoiy omillarni shakllantirish maqsadida tizimli ta'sir ko'rsatish jarayoniga aylanadi. Bunda ijtimoiy va ma'naviy hayot ta'sirida oilaning o'zi ham yangilanib borayotganini esdan ehiqarmaslik lozim.

Oilalar Respublikamiz shahar va qishloqlarining yagona ijtimoiy - iqtisodiy umumiyliigi asosida rivojlanmoqda. Ayni paytda oilaviy hayot va oilaviy tarbiya o'zining milliy xususiyatlariga ham egadir. Bu esa o'z navbatida oilaviy tarbiya metodlari va mazniunining umumiy va xususiy tomonlari rivojida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Respublikamiz o'zining demokratik, etnik milliy, shart-sliaroitlari jihatidan ham o'ziga xos xususivatlariga ega, bu, ayniqsa, aholining zich joylashganligi va intensiv ko'payishidir.

Respublikamizning ma'naviy hayoti va uning o'ziga xos tomonlari muttasil rivojlanmoqda, ularning oilaviy tarbiyaga ta'siri kuchaymoqda. Shaharlarning ko'pavishi, o'sishi, yashash sharoitining yaxshilanishi, madaniy va moddiy tomondan yuksalishi oilalarning yuksalishiga va bolalarning har tomonlama yetuk kishilar bo'lib kamol topishlariga sabab bo'lmoqda, yordam bermoqda. Ko'p bolalilik nisbatan kamayib borayotganiga qaramay, hali ham bu ko'rsatkich o'z kuchini yo'qotgan emas. Pedagogik jihatdan olganda esa ko'p bolalilik oilalarda ota-onalar, bolalar uchun yaqqol namuna bo'lib xizmat qiladilar. Mehnatkash xalqimiz «Bolali uy bozor, bolasiz uy mozor» deb bejiz aytishmagan. O'zbekistonda bir sutkada 1680 dan ortiq o'g'il va qiziarning tug'ilishi fikrimizning yaqqol dalilidir.

Xalqimiz o'zidan keyin zurriyot qoldirmaslikni qattiq qoralaydi. Xatto «Erkak nomiga ega bo'lish uchung uch qoidani: Uylanish, farzandli bo'lish va uy qura olish lozim», deyilgan fikr hozir ham qimmatini yo'qotgan emas.

Pedagogik jihatdan yakka bolalilik tarbiyani qiyinlashtiradi. Oilada tug'ilgan yakka farzand kattalarning jonli o'yinchoqlari, sevgi va g'ururlari, erkalari bo'lib voyaga yetadi. Buning qanday salbiy oqibatlariga olib kelishini tahlil qilib ko'raylik.

Ijtimoiy va ruhiy nuqtayi nazardan befarzandlik yoki kam bolalilik oila mustahkamligiga ta'sir etmaydi. Respublikamizdagi oilaviy majoralarning aksariyati bolasi yo'q yoki kam bolali oilalarga to'g'ri keladi.

Tibbiyot borasidagi tadqiqotlar va antropolog olimlarning ko'rsatishicha hayotimiz va uning qiyinchiliklarini bartaraf eta oladigan bolalar deb oiladagi ikkinchi yoki uchinchi bola belgilangan. Yakka bola bilan chegaralanish kelajakda nuqsonli odamlarning ko'payishiga olib keladi. Demak pedagogik, ruhshunoslik va tibbiyot fanlari tavsiyasiga ko'ra oilada 3 -4 farzand bo'lishi ma'qul hisoblanadi.

A. S. Makarenko ta'kidlaganidek «qat'iy aytish mumkinki, yolg'iz o'g'il yoki qiz tarbiyalash bir nechta bolani tarbiyalashga qaraganda ancha qiyin ish. Xatto, agar moddiy jihatdan bir muncha qiynalgan taqdirda ham yolg'iz bola bilan kifoyalanib qolish yaramaydi».

Agar oilada hamkorlik, o'zaro yordam, bir-biriga ishonch holati mavjud ekan, bunday oilada rostgo'y, samimiy, mehribon, o'rtoqlariga doimo yordam berishga tayyor bo'lgan inson kamol topadi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatmoqdaki, yoshlarda kattalarning xatti-harakatlari, axloqiy fazilatlariga tanqidiy munosabatda bo'lish hissi kuchli bo'ladi. Shu jihatdan qaraganda tinch-totuv yashaydiganlarning oilalaridagi bolalar ham shu oilada mavjud bo'lgan axloqiy xislatlar; xushmuomalalik, odoblilik, kattalarga hurmat, kichiklarga g'amxo'rlik qilish, oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro hurmat, ayniqsa ayollarga nisbatan ko'rsatiladigan g'amxo'rlik kabi ijodiy fazilatlardan namuna olib, voyaga yetadilar.

Oila haqida tushuncha.

Oila - kishilar hayotining eng muhim qismi, jamiyatning kichik xujayrasi, ijtimoiy madaniy organizm. Oila-kishilarning tabiiy-biologik, xuquqiy, ma'naviy, munosabatlariga asoslangan birlik. Oilaning rivojlanishi jamiyatning moddiy ishlab chiqarishi va ma'naviy hayoti bilan bog'liqdir.

Demak, oila haqidagi ta'limotga ko'ra, oilaning o'ziga xos shakli kishilik jamiyati taraqqiyotining har bir bosqichida uning aniq tarixiy ko'rinishida mavjud bo'lgan ijtimoiy tuzum характери bilan belgilanadi.

Tarixan oila va nikoh masalalarining qanday bo'lganligi, ushbu qadriyatlarga olimlar va allomalarning munosabatlari qanday bo'lganligi o'ta muhim va amaliy ahamiyatli hisoblangan.

Guruhiy nikohdan	Oilaviy munosabatlar tizimining rivojlanishi
juftlik nikohigacha	nikohga kiruvchilar sonining kamayishi va nikoq

uchun sherik tanlash tartiblarining qat'iy belgilanishi yo'nalishida ro'y bergan. Insoniyat ijtimoiy tashkil topishining eng qadimiy shakli bu urug'-qabila bo'lib, u bir ayol urug'idan tarqagan, matriarxat zotidan kelib chiqadigan (uning qizlari, qizlarning farzandlari va ularning avlodlari) barcha odamlarni o'zida birlashtirgan. SHu tariqa urug' – mohiyatan matriarxal oila bo'lib, onaning zotidan tarqalgan barcha avlodni bir-biriga chatishtirib boravergan. Bunday urug' shaklining saqlanib qolgan andozalaridan biri ruslardagi “matreshka” o'yinchog'i bo'lib, u bizga ona avlodlarining o'zaro bir-birlaridan kelib chiqishini ifodalaydi.

Gruppaviy yoki guruhiy oila – bir necha opa-singillarning boshqa bir toifa erkaklar guruhi bilan nikohga kirishini taqozo etgan. Bunday ayollar yo o'z qavmidan bo'lgan erkakka yoki tamoman boshqa – begona urug'ning vakili bo'lmish erkakka turmushga chiqishi mumkin bo'lgan. Lekin avlodning kelib chiqishi onalik urug'iga bog'langan, otalikni belgilash holatlari inobatga olinmagan. S. Golodning yozishicha (1998 y.), onadan tarqagan avlodlar XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ham ko'pgina xalqlarda saqlanib kelgan.

Juftlik oila – alohida, bir-biriga unchalik yaqin bo'lmagan yoki mutloq begona ikki kishi o'rtasidagi nikohni nazarda tutgan bo'lib, ular o'rtasidagi munosabatlar har doim ham mustahkam bo'lmagan va tomonlarning xohish-irodasiga ko'ra u istalgan vaqtda barbod bo'lishi ham mumkin edi. Hozirda mavjud bo'lgan oilalarda shaklan shu model saqlab qolingan.

Patriarxal oila – bir erkak kishining bir yoki bir nechta ayol o'rtasidagi nikohiga asoslangan bo'lib, bunda erkakning huquqlari xotinnikidan ko'proq bo'lgan, nikohning bu shakli ayni xususiy mulkchilik rivojlangan davrlarda keng tarqalgan. Bunday oilada, tabiiy, erkak huquqlari ustivor bo'lib, uning har qanday oila masalalarini echish va qarorlar qabul qilishdagi mavqei yuqori hisoblangan. SHu sababli avlodlarning kelib chiqishi, urug'ning tarqalishi kabi masalalar erkakning avlodlari shajarasidan boshlangan, mulkka egalik va unga vorislik ham erkaklar tabaqasi orqali yuritilgan.

Monogam oila – bir erkak va bir ayol juftligi o'rtasidagi nikoh munosabatlarini nazarda tutadi. Ularning er-xotinlik munosabatlari ham umrbod hisoblangan (qadimgi grek so'zlaridan olingan: “monos” – bir, yagona, tanho; “gamos” – nikoh ma'nosini bildiradi). Oilaning bunday shakli taxminan uch ming yillar avval paydo bo'lgan. O'z mohiyatiga ko'ra bu – patriarxal oilaning bir ko'rinishi hisoblanib, yaqin yillardan buyon oilaning bu shakli ayollar va ayollarning teng huquqliligi, bolalar tarbiyasidagi muayyan erkinlik, ona va bolaning oila hayotidagi nufo'zi ortishi shaklida rivojlanib kelmoqda.

Lekin biz oila va nikoh tushunchalarining allomalar va taniqli olimlar izlanishlarida qanday ifoda etilganiga e'tiborni qaratamiz.

Ana shunday nikoh tarixiga qiziqqan olimlardan biri qadimgi grek faylasufi Platon bo'lgan. Uning fikricha, barcha zamon va makonlarda patriarxal oila

ijtimoiy munosabatlarning, jamiyat hayotining asosi bo'ladi, davlat esa ana shu kabi oilalarning birlashuvidan paydo bo'lgan.¹ Lekin Platonning o'zi o'z qarashlarini oxirigacha himoya qilib, fikrlarini yakunlay olmadi. "Ideal davlat"² deb nomlangan loyihasida u jamiyatda hamjihatlikni ta'minlash uchun ayollar, bolalar birlashmalari va sarmoyalarning umumiylikiga erishish lozim, degan fikrni ilgari surdi. Lekin ayni shu oxirgi fikr aslida yangi emas edi. Qadimgi grek tarixchi olimi Geradot o'zining mashhur "Tarixlar" deb nomlangan asarida ayollar birlashmalari bir qator qabilalar uchun o'ziga xos xususiyat ekanligini ta'kidlagan edi³. Bu kabi ma'lumotlar antik davrga xos bo'lgan qator manbalarda o'z ifodasini topgan.

Aristotel Platonning izdoshi sifatida uning "ideal davlat"ga oid fikrlarini rivojlantirib, ustozining patriarxal, ya'ni, erkak kishi etakchi bo'lgan oila modelini yoqlab fikr bildirgan. Uning fikricha, oilalar birlashib, "turar-joylarni", "turar-joylar" birlashib, yaxlit davlatni tashkil etadi.⁴ Platon va Aristotellarning shu kabi nuqtai nazarlari anchagina davrgacha hukmron bo'ldi va oila jamiyatning bo'lagi sifatida, o'ziga xos bo'linmas patriarxal institut sifatida idrok etildi. Frantsuz ma'rifatparvari Jan-Jak Russo o'z davrida "Oila – eng qadimiy va asli tabiiy bo'lgan jamiyat bo'lagidir. Oila – kerak bo'lsa, jamiyat siyosiy qiyofasini belgilovchi obraz, bunda etakchi, rahbar – go'yoki ota misoli, xalq esa – farzandlar kabidir"⁵ deb yozgan edi. Bu aslida insoniyat tarixida uzoq vaqtgacha ustivor bo'lgan paternalizm tamoyilining yaqqol timsolidir ("patern" – ota, otalik, etakchilik ma'nosini bildiradi).

SHunday qilib, antik davrning faylasuflari ham, ulardan keyingi o'rta asr, hattoki, yangi davrga kelib ham ko'plab tadqiqotchilar va allomalar oila institutiga alohida ahamiyat berib, o'z asarlarida ijtimoiy munosabatlarning tabiati va namoyon bo'lishini aynan oilaviy munosabatlarning xarakteridan qidirish lozimligi fikrini yoqlab keldilar. SHu kabi fikrni nemis faylasuflari Kant va Gegelning mutloq g'oyaga aloqador asarlarida ham ko'rish mumkin. Ular avvalo "oila" va "nikoh" tushunchalari o'rtasida bevosita aloqa mavjudligini ta'kidlaydilar. SHu bois bo'lsa kerak, hanuzgacha shu ikki tushuncha ko'pincha sinonimlarday o'zaro bog'liqlikda ishlatiladi. SHunday bo'lsada, oilashunoslar bu ikki tushunchaning o'rtasida nafaqat farq borligini, balki ular aslida tarixan turli davrlarda paydo bo'lganligini ham isbot qila oldilar.

Masalan, rus olimi A.G. Xarchevning kitoblarida bu ikki tushunchani farqlovchi jihatlar aniq belgilangan. Xususan, uning talqinida "nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi tarixan o'zgaruvchan o'zaro munosabatlarni bildirib, shu orqali jamiyat ularning jinsiy hayotlarini tartibga soladi, o'zaro er-xotinlik

¹Платон. Законы // Соч.: в 3 т. – М.: 1972. – Т.3. – Ч.2. – С. 148-150.

²Платон. Государство // Соч.: в 3 т. – М.: 1972. – Т.3. – Ч.1. – С. 244-459.

³Геродот. Истории. – Л.: 1972. – С. 232.

⁴Аристотель. Политика // Политика Аристотеля. – М.: 1911. – С. 4-32.

⁵Руссо Ж.-Ж. Об общественном договоре, или Принципы политического права // Пед. соч.: В 2 т. – М.: 1981. – Т.2. – С. 170.

munosabatlarini hamda farzandlari bilan shakllanadigan munosabatlarni, bu boradagi huquq va majburiyatlarni belgilaydi, yo'naltiradi"⁶. Oila esa nikohga nisbatan murakkabroq tabiatli munosabatlarni ifodalaydi, chunki u nafaqat er va xotinlarning o'zaro munosabatlarini, balki ularning farzandlari, qarindosh-urug'lar, ikkalalari uchun yaqin bo'lgan insonlar munosabatlarini ham qamrab oladi.

Oila va nikoh masalalariga tarixiy yondashuv shveytsariyalik olim I.Baxoven (1815-1887) ishlarida, ayniqsa, uning "Onalik huquqi" kitobida yoritilgan. Undan tashqari, amerikalik tadqiqotchi L.Morgan (1818-1881)ning asarlarida ham oilaga nisbatan evolyutsion qarashlar bayon etilgan bo'lib, "Qadimgi jamiyat" kitobi buning yaqqol namunasi hisoblanadi. Bu asarlarda oila institutining bevosita jamiyat tarqqiyoti bilan bog'liqligi, jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning takomili oilaning mustahkamligiga bog'liq ekanligi g'oyasi o'z isbotini topgan. Bu o'zgarishlar tarix mobaynida turli jins vakillari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga bog'liq tarzda kechishi ham ta'kidlangan.

SHunday qilib, oilani ijtimoiy institut sifatida idrok etish va uni ilmiy jihatdan o'rganish an'analari tarixi XIX asrning o'rtalariga to'g'ri keladi. Ayni shu davrdan boshlab jahonning turli burchaklaridagi taniqli sotsiologlar va antropologlar (L.Morgan, M.Kovalevskiy, B.Malinovkiy, P.Sorokin, keyinchalik A.Xarchev, S.Golod va boshqalar.) oila muammolarini o'zlarining aniq tadqiqot mavzulari sifatida o'rgana boshladilar.

Avvalombor oilaning vujudga kelishiga nikox asos bo'ladi, ana shuning uchun oilada bola tug'ilmagan bo'lsa ham nikox munosabatining o'zi oilani tashkil etadi. Oilada er-xotin bilan birga bolalarning ham bo'lishi tipik oilani vujudga keltiradi. Ota-onalar va bolalar har taraflama jipslashgan oila birligini tashkil etadi. Bu shaxslar oilaning yadrosidir. Oilaviy munosabatlarning shakllanish darajasiga qarasak, nikox va oilani bir-biridan farqlash lozim. Nikox oiladan ilgari vujudga kelgan bo'lib, dastavval patriarxal oila vujudga kelishga qadar urug'chilik davrida faqat jinsiy tabiiy xayotni boshqarib borgan. Oila dastlab yo'zaga kelgan patriarxal zamonda erkak va

ayolning tengligi, bir-birini sevishi haqida hech qanday tasavvur shakllanmagan. U davrlarda ayol xuquqi cheklangan, erkakning mulki sanalgani uchun uni sotish, sovg'a sifatida boshqa odamga taqdim etishi mumkin edi. O'shanda ayol oila doirasida ham, jamiyat doirasida ham erkakka qaram edi. SHunga qaramay oila doirasida boylik orttirish va uni qonuniy vorislar-farzandlarga berish maqsadining anglanishi, shu yo'lda boshlangan say-harakatlar oila va oilaviy munosabatlar takomilida muhim rol o'ynaydi. Bu jarayonning chuqurlashuvi natijasida oila qurishga munosib ayolni tanlashga, binobarin, unga bokiralik to'lovini to'lashga yoxud ota-onasining martabasi va

⁶Харчев А.Г. Брак и семья в СССР. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: 1979. – С. 66.

boyliigi darajasida munosabatda bo'lishga, xullas, sevib-sevilishga e'tibor beriladigan bo'ldi. Oila o'z vazifasini to'la bajarishi uchun er-xotin masxuliyati doimo bir xil bo'lavermagan. Balki ular zamon o'zgarishi bilan o'zgarib borgan. Monogam oila vujudga kelgandan o'tgan jamiki ijtimoiy to'zumlarda oila moddiy jixatdan erkak kishi qaramog'ida bo'lgan. U oilaning barcha tashvishlarini o'z zimmasiga oladi, jumladan oila ta'minoti, uy-joy, qolaversa oilaning nomus, obro'-e'tiborini va molu dunyosini begonalardan himoya qiladigan raxbar bo'lgan. Ayol, asosan, bola tug'ish, parvarishlash va tarbiyalash, uy-ro'zg'or ishlari bilan band bo'lgan. SHu sababli oilada erkak kishining o'rni mavqei yuqoridir.

Oila har bir xalqning, millatning davomiyligini saqlaydigan, milliy qadriyatlarning rivojini ta'minlaydigan, yangi avlodni dunyoga keltirib, uni ma'naviy va jismoniy barkamol qilib tarbiyalaydigan, jamiyatning asosiy negizi hisoblanuvchi muqaddas maskandir. Insonni inson bo'lib shakllanishida, el-yurt ichida izzat-xurmatga sazovor bo'lishdan, yuksak ahloq-odob qoidalarini o'z ichiga mujassam etishida oila asosiy rolni o'ynaydi. Oila shunday bir makonki, unda xayotning davomiyligini ta'minlovchi shaxs shakllanadi, etnik madaniyat, urf-odatlar, ahloqiy-ma'naviy qadriyatlar saqlanadi va rivojlantiriladi, jamiyat taraqqiyotini belgilovchi iqtisodiy ma'naviy xayot poydevori qo'yiladi va mustaxkamlanadi. Oila ahil va totuv bo'lsa, jamiyatda tinchlik va hamjixatlikka erishiladi, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi. Oilada tarbiyaning negizlariga asos solinadi. U bolada shakllanishi lozim bo'lgan barcha insoniy munosabatlar va fazilatlarni tarbiyalovchi xayot maktabi hisoblanadi.

Oila jamiyatning kichik bo'lagidir. Oilalarning birlashishi natijasida jamiyat rivojlanadi. Jamiyatdagi har bir o'zgarish oilaga ta'sir qiladi va uni o'zgartirishga olib keladi.

Oila voyaga etgan ikki yoshning sevgi, ardoqlash, xurmat qilish asosida ixtiyoriy ravishda xalq xoxishi bilan to'zilgan qonuniy ittifoqdir.

Oilaning oldiga qo'ygan asosiy maqsadi ikki jinsning o'zaro kelishuvi asosida farzand dunyoga keltirish va tabiat va jamiyatning davomiyligini ta'minlashdir. Oila jamiyatning o'zidek murakkab, dunyoning o'zidek serjumboq, xayotning o'zidek shirin va sexrli maskan. Axli xonadonda, ma'rifatli, maxallada insonparvar, jamiyatda zukko yigitlar, oqila qizlar, umr bo'yi elim deb, yurtim deb yonib yashaydigan komil farzandlar ulg'ayadi, deydi, – Prezidentimiz o'z nutqida. Prezidentimiz 1998 yilni «Oila yili» deb elon qilib, fuqarolar diqqatini oilaga jamladi. Mamlakat faravonligini-oila faravonligiga, xalq baxti-oila baxtiga bog'liq. Mustaqil O'zbekiston oldida turgan yangi, mushkul, ulug'vor vazifalarni odamlar faolligi, tashabbusi, fidokorligisiz amalga oshirib bo'lmaydi. Har bir inson esa oila beshigida ulg'ayadi. Demak, oila – Vatan uchun ham, har bir o'zini anglagan fuqaro uchun ham bugungi davrning eng ta'sirchan tarbiya o'chog'idir. Oila yilida oila manfatlarini ta'minlash maqsadida davlat dasturi ishlab chiqildi va muvafaqqiyatli amalga oshirildi.

Bundan tashqari «Sog'lom avlod yili» (2000 yil), «Onalar va bolalar yili» (2001 yil), «Sog'lom avlod» ordenining ta'sis etilishi va shu kabilar oilani himoya qilish, farzandlar ravnaqi uchun muhim ahamiyatga egadir.

2002 yil 5 yanvardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasi tomonidan qabul qilingan «Ayollar va o'sib kelayotgan avlod sog'lig'ini mustakamlashga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida»gi qarorlardan ko'zlangan asosiy maqsad – oila a'zolarining tibbiy madaniyatini oshirish, ayollarning, ayniqsa tug'ish yoshidagi ayollar salomatligini mustaxkamlash, sog'lom avlod tug'ilishi, ularni tarbiyalash choralari kuchaytirish, «Sog'lom oila-sog'lom bola» tamoyilini amalga oshirishdan iborat. O'zoq tarixiy va mustaxkam poydevorga ega bo'lgan o'zbek oilasi, uning o'ziga xos milliy xususiyatlarini butunlay yo'q qilish, insoniyat xotirasidan o'chirib tashlash uchun o'zgalar hech qanday kuch topa olmadi. Tarixan qisqa 21 yil ichida o'zbek oilasi ichida misilsiz o'zgarishlar yo'z berdi:

Birinchidan, mustaqillik sharofati bilan oila va manfaatlarini muxofaza qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Oila tarbiyasi milliy tarbiya mezonlari asosida amalga oshirila boshlandi.

Ikkinchidan, qonun ustuvorligini ta'minlash oila, onalik va bolalikning xuquqiy manfaatlarini, oilaviy munosabatlarning xuquqiy asoslarini takomillashtirish borasida muhim ishlar amalga oshirildi.

Uchunchidan, oilaning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini ta'minlash, nogironlar, etim-esirlar, yolg'iz keksalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash.

To'rtinchidan, yurtboshimiz aytganidek, «Ayolsiz oila, oilasiz davlat, jamiyat bo'lmasligi o'z isbotini topdi».

Beshinchidan, Prezidentimiz tashabbuslari bilan 1998 yil «Oila yili», 1999 yil «Ayollar yili», 2000 yil «Sog'lom avlod yili», 2001 yil «Onalar va bolalar yili», 2002 yil «Qariyalarni qadrlash yili», deb e'tirof etilishi va shu munosabat bilan Vazirlar Maxkamasi bilan maxsus davlat dasturlarining qabul qilinishi.

Oltinchidan, Prezidentimiz 1995 yil 2-martdagi farmonlariga binoan, Respublika Xotin-qizlar qo'mitasi raisiga Bosh vazir o'rinbosari, tuman, shahar, viloyat xotin-qizlar qo'mitalari, raislariga xokim o'rinbosarlari maqomlari berildi.

Ettinchidan, oila, xotin-qizlar, bolalar manfaatlarini himoya qiluvchi o'ndan ortiq jamoa tashkilotlari tashkil etildi. Darxaqiqat, XXI-asr o'zbek oilasi mustaxkamligi, barqarorligi, farovonligi bilan er kurrasidagi barcha oilalar uchun namuna maktabi bo'lmog'i lozim.

Oila tarbiyasi mazmuni va mohiyati

Ahloqiy tarbiya barcha davrlarda ham dolzarbligi bilan ajralib turadi. Odamzod paydo bulibdiki hamisha odamiylik shaniga yarasha xatti-harakat

qilishga, o'zida u yoki bu fazilatlarni mujassamlashtirishga intilib keladi. Odob-ahloq harakat meyorlari asrlar davomida tarkib topib takomillashib borgan. Ular har bir shaxsni o'zini tuta bilishi, xatti-harakatida va gap so'zlarda o'z ifodasini topadi. Oilada bolalarni ahloqiy tarbiyalash ko'p qirrali murakkab jarayon bulib u odob, mehnat, ro'zgor yuritish malakalarini, ota-ona va kattalarga xurmat va ijtimoiy burchga sodiqligi kabilardir. Oilada bolalarni kichik yoshdan boshlab ahloq meoyorlariga bo'ysunishni, ahloqiy fazilatlarni shakllantirishni asosan ota-ona tashkil qiladi. Ahloqiy tarbiya deganda boladagi kamtarlik, xushmuomalalik xurmat o'zaro insonparvarlik, vatanparvarlik, burchga sadoqat, tug'riso'zlik kabi fazilatlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Oilada ahloqiy tarbiyani olib borish ota-ona va keksa avlod zimmasidagi vazifa hisoblanadi. Keyinchalik o'quv maskanlarda ahloqiy tarbiya murakkablashib rejalashtirilgan xolda olib boriladi. Ahloqiy tarbiya oilada avvalom bor ota-onaning o'zaro munosabatida, farzandlarga bo'lgan munosabatda va jamiyatda o'z urnini topishga harakat qilishda yaqqol ko'rinadi. Oilada bolani mehnat qilishga o'rgatish mehnat va mehnat ahlini xurmat qilish ruxida tarbiyalash lozim. Dono xalqimiz insonning baxti, ko'rki mehnatda deb bejiz aytishmagan. Kishi baxtiga halol, mehnat tufayli erishadi. Bolaning yoshi va imkoniyatlariga tug'ri keladigan har qanday mehnat uni chiniqtiradi, aqlini o'stiradi hamda keyinchalik qiyinchiliklarni enga oladigan kuchli, irodali qilib tarbiyalaydi. SHuningdek, ahloqiy fazilatlarning kamol topishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Bola tarbiyasida ahloqiy tarbiya usullaridan foydalanish ham maqsadga muvofiqdir. Bunda suxbatlashish, tushuntirish, namuna ko'rsatish, ragbatlantirish, jazolash kabi usullardir. Bularni olib borishda ota-ona farzand bilan ahloq to'grisida suxbatlashish, tushuntirish, namuna ko'rsatish, ayrim hollarda jazo usulini ham qo'llashi mumkin. Oilada ko'proq ota o'g'il bolani, ona esa qiz bolani tarbiyalaydi. Ona o'z qizini tarbiyalashda unda ahloqiy sifatlarini shakllantirishi kerak. Qiz bola xayoli, iboli, pokiza, iffatli, odobli, mehribon bo'lishi kerak. Otalar esa o'g'illarini mard, tug'riso'z, bilimdon, epchil, g'ururli, vatanga sadoqatli, yoru-dustlariga vafodor qilib tarbiyalashi zarur. Ota-onalarda tarbiyaviy ko'nikmalar shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, har bir oiladagi ota-ona bola tarbiyasida avvaloming yillardan beri avloddan avlodga o'tib kelgan udumlarga, odatlarga, an'analarga tayanadi, bu esa ko'p yillik tajribada isbotlangan to'g'ri yo'ldir. Ota-ona oilada o'z bolasini tarbiyalar ekan, bunda jamoatchilikning o'ziga xos ahamiyati borligini inkor qilib bulmaydi. Bola ana shu jamoatchilik yashaydigan muxitdagi umumiy ma'naviy-ahloqiy normalar asosida tarbiyalanadi va oilada etishib chiqqan shaxs shu jamiyat uchun xizmat qiladi. Jamiyat talabi bilan oiladagi tarbiyaga bo'lgan talab o'zviy boglangan bo'lishi darkor. O'zbek xalqining an'analari barqarordir. Ulardan ko'plari xozirgacha saqlanib kelmoqda, ayrimlari yangi kurinishlarga ega bulib, yangi an'analarni paydo qilmoqda. Ularda zamonaviylik, milliy o'ziga xoslik bilan, utmishning ezgu xotiralari bilan, xalq xayotining qaxramonlik tarixi bilan uygunlashib ketgan.

Xayotiy tajribaga ega bo'lgan katta avlod vakillarining bolalarga maslaxatlari, nasixatlari, aforizmlar, maqollar, matallar saqlanib qolgan. Ularda ahloqiy yul-yuriqlar ahloq normalari ifodalangan. Nomaoul xatti-harakatlarni qaralashga, tugrilik, samimiylilik va xalollikni targib qilishga doir maqollar katta ma'naviy-tarbiyaviy ta'sir kursatgan va bugungi kunlar ham kursatmoqda. O'zbek bolalariga oilada ahloq madaniyati ko'nikmalarini singdirish ilg'or odatlar va an'analarning butun bir tizimini o'z ichiga oladi. Masalan: O'g'il va qiz bolalar uyga kattalar kirib kelganda o'rnidan turib, qullarini ko'ksiga qo'yib salom berish bilan an'anaviy extiromni izxor qiladilar. Xalqimizda baland ovoz bilan gapirish odob doirasiga kirmagan. Qovogini uyib, qoshini chishirib, nodon bulib yurish beodoblik sanalgan. Bu ahloq qoidalariga amal qilish hozirgacha saqlanib kelmoqda. O'zbek oilasidagi turmush, ahloq qoidalari bolalardan kattalarga oldin salom berish, ularni juda ko'p savollar berib charchatib qo'ymaslik, kattalar utirmagunga o'tirmaslik, kattalardan oldin uyga kirmaslik, aksincha, eshikni ochish va kattalar hamda mexmonlar kirib bo'lguncha ushlab turishni talab qiladi. Ana shu qoidalarga amal qilgandagina bolalar tarbiyalangan deb hisoblanadi. Bu odatlar u yoki bu shaklda davom etib kelmoqda va bolalarga madaniy xulq ko'nikmalarini singdirishda katta ahamiyat kasb etmoqda. Ahloq, odob tarbiyasi milliy, ma'naviy, umuminsoniy qadriyatlar asosida amalga oshirilgandagina uning mazmuni yanada boyib boradi. Chunki milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar ahloqiy tarbiyaning hamma tomonlarini qamrab oladi. Insonning jamiyatga bo'lgan munosabatini shakllantirish, salbiy illatlarga qarshi nafrat uygotish, ongli intizomni tarbiyalash, komil insonni voyaga etkazish kabilar ahloqiy tarbiyaning vazifalaridir.

Ahloqiy tarbiya vazifalaridan yana biri insonning jamiyatga bo'lgan munosabatini yuqori pogonaga ko'tarishdir. Iymon va insof, so'z va ish birligi, insonparvarlik – yangi qurilayotgan jamiyat asosiy xususiyatlari bo'lib qoladi. SHunday ekan, jamiyat va xalq manfaati, uning baxt-saodati uchun ko'rashish masouliyatini har bir fuqaro teran xis etishi va unga amal qilishi lozim. YOshlarni tarbiyalashda shuroga ahloq usullaridan voz kechib, sharqona va milliy ahloq odob normalari asosida ish yuritish bilan birga jamiyatga xurmat, mustaqillikni mustaxkamlash, insonlarga insoniy munosabatda bo'lish kabi fazilatlarni singdirish taqozo etiladi. Bu vazifalarni amalga oshirish o'quvchilarning jamiyatga bo'lgan munosabatini shakllantirishda muhim ahamiyatga egadir. O'zbekiston mustaqilligi, yurtimiz ravnagi yoshlarni o'qish, izlanish va mehnatdan qochmaydigan, har qanday qiyinchiliklardan xayiqmaydigan, salbiy illatlarga nafrat bilan qarash ruxida tarbiyalashni talab qiladi. SHunga ko'ra bugungi O'zbekiston zamirida yashayotgan har bir yosh kelgusida shu ulkan xaqiqiy egasi bo'lib etishishi, uning gullab-yashnashi haqida qaygurishi, erishgan yutuqlarni mustaxkamlashi lozim. Ahloqiy tarbiya vazifalaridan biri – ongli, intizomli bo'lishdir. Onglilik, intizomlilik kishining faoliyatida, xulq-atvorida, kishilar bilan aloqasida, umumiy dunyoqarashida namoyon bo'ladi. Ongli, intizomli kishining madaniyati, muomalasi kundalik

masalalarni xal qilish bilan xayotining mazmuni, yaxshilik va yomonlik haqidagi ma'naviy boylik haqida tasavvurlari bilan u yoki bu tarzda bog'langandir. Ongli, intizom egasi bo'lgan kishi o'z ahloqiy burchini tug'ri anglaydi, o'z xatti-harakatlariga baxo beradi, notug'ri xatti-harakatni qoralaydi. Intizomli kishi o'z xulq-atvoriga tugri baxo berish bilan birga biror xatti-harakat uchun shaxsiy mas'uliyatni his etadi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng ta'lim-tarbiya mazmuni va mohiyatida, usullari va shakllarida jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. Ta'lim-tarbiyada milliy qadriyatlarni shakllantirish va rivojlantirish asosiy o'rin egallaydi. Tariximiz, madaniyatimiz, milliy urf-odatlariga e'tibor kuchaydi. Komil inson O'zbekiston mustaqilligini mustaxkamlashda o'z e'tiqodi, gayrat-shijoati, madaniyati, bilimi va ularni tatbiq etish maxorati bilan ajralib turadi. U jamiyatda, jamoada xalqlar va millatlar urtasida dustlik, soglom turmush tarzini yaxshilashga qaratilgan muxitni vujudga keltirishga intiladi. Komil insonni shakllantirishda maktabda, oilada soglom ma'naviy muxit barqaror bo'lishiga erishish muhim ahamiyatga ega. Chunki sog'lom muxit natijasidagina ahloqiy fazilatlar tarkib topadi. Ota-onalar o'z farzandlarini komil insonlar qilib tarbiyalashi ularda Vatanga muxabbat, mehnati va fidoyiligi bilan o'zgalarga foyda keltirish, sadoqat, samimiylik kabi xislatlarni kamol toptirishga xizmat qiladi. Farzandlarimizning bunday insonlar bo'lishda oilaning totuvligi, ota-onaning o'zaro mexr-muxabbati ham samarali ta'sir ko'rsatadi. Kishi o'z xayotida ahloqiy kamolotga qanchalik ko'p intilsa, shunchalik o'z xato, kamchiliklarini anglab boradi.

Bu omillar oilada bolani ahloqiy tarbiyalashning mazmunini tashkil etadi va ular bir qator peadagogik xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Bular quyidagilardan iborat:

- ayrim oilalarda bolalarning tarbiyasi faqat onalar zimmasida, ota esa bu ishdan o'zlarini chetga oladilar. Go'yo farzandlarini bog'cha, maktab tarbiyalab berishlari shart. Tarixiy tajriba shundan dalolat beradiki, q adimdan o'g'il bolalar tarbiyasi bilan otalar, q iz bola tarbiyasi bilan onalar shug'ullanganlar, ammo ular asosan erkaklar nazoratida bo'lgan;

- ota-onalar bolalarga birdek munosabatda bo'lishlari, bir xil mehribon va g'amxo'r, talabchan va q attiq q o'l bo'lsalar bolalar hayoti butun va mukammal bo'ladi. Biri talab qilganda, ikkinchisi yonini olsa tarbiya bo'ziladi. Bolalariga xaddan tashq ari mehribonchilik qilayotgan ota-onalar ularni xurmat qilishdan oldin, o'zlarini ham xurmat qilishni o'rgatishlari zarur;

- ko'pgina ota-onalar bolalarini tarbiyalash borasida o'z vazifalari va burchlarini to'la xis qilmaydilar. Boshq acharoq aytganda ularda pedagogik tayyorgarlik etishmaydi. Zotan oilaviy tarbiya, avvalo ota-onalarning o'zlarini-o'zlari tarbiyalash demakdir. Chunki bola ayni paytda ta'sir ob'ekti va sub'ektidir. Biroq ota-ona bola ana shunday ob'ekt ekanligini sezmasligi uchun harakat qilishi kerak. Ammo barcha ota-onalar ham buni tushunib ea olmaydilar;

- oila hayotini to'g'ri tashkil qilish, oilada sog'lom ahloq iy muhitni yaratish lozim. Bu ishda hech qanday mayda-chuydalar bo'lmasligi kerak. Har bir narsa bolaga ta'sir qiladi. Ana shu ta'sir natijasida salbiy yoki ijobiy odatlar, turlicha xulq-atvorlar paydo bo'ladi. Ota-onalarning har bir xatti-harakatini bolalar ko'zatib turadi. SHuning uchun bolaga u yoki bu ishni qil yoki qilma deb nasihat qilish o'rgatish yo'li bilan tarbiyalayman, deb o'ylamaslik kerak;

- har bir ota-ona bolasini barkamol inson bo'lishini istaydi. Farzandini ana shunday inson bo'lishidan nafaqat ularning o'zi, balki jamiyat ham manfaatdir. Ota-onaning fuqarolik burchi ham shuni taqozo etadi. SHunga ko'ra har bir ota-ona, eng avvalo mamlakat uchun bo'lajak fuqaroni tarbiyalayotganini unutmasligi lozim;

- ota-ona shaxsining o'zi bola tarbiyasida muhim rol o'ynaydi. Ularning oqilona o'g'itlari, pand-nasihatlarining hech biri, ularning shaxsiy namunasi o'rnini bosa olmaydi. Bolalarning ahloqiy fazilatlarini tarkib topishida, oiladagi o'zaro ahllik, halollik va rostgo'ylik, o'zaro ishonchning mavjudligi, umuman sog'lom ahloqiy muhit muhim ahamiyatga ega;

- oilada bolalarni sevish, ularning shaxsiyatini hurmat qilish va hech qachon ularni izzat-nafsiga tegmaslik zarur. Bunday jazolash usuli bola nafratini kuchaytiradi. Har qanday g'amxo'rlik talabchanlik bilan olib borilgani maqsadga muvofiqdir;

- har bir oilada uning o'ziga xos bo'lgan an'analar mavjud. Bu an'analar bola ongiga, uning xulq-atvoriga juda kuchli ta'sir qiladi. Masalan: oila a'zolarining tug'ilgan kunlarini o'tkazish, qarindosh urug'lar xolidan xabar olish va hokazolar;

Bola tarbiyasida ota-onaning ishxonasidagi, mahalla va qo'ni-qo'shnisi oldidagi obro'yi ham katta rol o'ynaydi va bolalarida ularga nisbatan faxrlanish hissinu uyg'otadi. Ular shu ruhda tarbiyalanadilar.

Bizning Turon zamin xalqlari ahloqiy tarbiya soxasida boy an'analarga ega. Ahloqqa oid dastlabki fikrlar "Avesto" kitobida, qadimgi bitiklarda va boshqa yozma manbalarda o'z ifodasini topgan. Bular tashqari, O'zbek xalqi urtasida keng tarqalgan pandnomalar, ugitlar va odobnomalarda, xalq pedagogikasida, falsafiy risolalarda, allomalar merosida ahloqiy masalalarga keng urin berilgan. Amir Temur singari jaxon maonaviyati saltanatida o'z urinlariga ega bo'lgan buyuk bobokalonlarimizning ahloq, go'zal xulq haqidagi fikrlari bugungi kun talabi bilan yozilgandek tuyuladi. "O'g'illarim!" Millatning ulug' martabasini, saodatini saqlamoq uchun Sizlarga qoldirayotgan vasiyat va to'zuqlarni yaxshi uqing, aslo unutmang va tatbiq eting. Xadisi shariflardagi ahloqqa oid ibratli maslaxatlar, xikoyatlar, asrlar davomida ajdodlarimiz xayotida tarkib topgan milliy urf-odatlar, an'analar Beruniy, Forobiy, Axmad YAssaviy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur singari buyuk allomalar, olimlar, yozuvchilarning ahloq haqidagi ko'plab fikr-muloxazalari bugun kunda

ham oilaviy xayot uchun, har bir inson qadr qimmatini yuqotmagan, muhim tarbiyaviy ahamiyatga molikdir. Abdulla Avloniyning fikricha, ahloq bu xulqlar majmuidir. Xulq esa, kishida o'z-o'zidan paydo bulmaydi. Ularning shakllanishi uchun maolom bir sharoit, tarbiya kerak. Kishilar tO'g'ilishida yomon bulib tO'g'ilmaydilar, ularni muayyan sharoit yomon qiladi. Tarbiya bola tO'g'ilgan kundan boshlanadi va umrining oxiriga qadar davom etadi. Avloniy yaxshilikni ulug fazilat deb hisoblaydi, insonlarni bir-birlariga yaxshilik qilishga daovat etadi. U deydi:

YAxshilik qilsang, bulur joning omon,

YAxshilikdan hech kishi kurmas ziyon.

YAxshi so'z birlan ilon indan chiqar,

YOmon so'z bo'lsa, pichoq qindan chiqar.

Eng muhim ahloqiy boylik ibn Sinoning ta'kidlashicha, adolatdir. Adolat muvozanat, urtalik tushunchalari bilan bogliq. Ahloqiy tushunchalar aqlga, aqliy bilimga asoslanishi lozim. Lekin inson qanchalik bilimdon, olim bulmasin, ahloqiy talab-talablarga tayanmasa, u odobsizlik va yomonlikka yul quyadi. Ibn Sino o'zining "Qush tili" asarida ikki yo'zlamachilik, yolg'onchilik, xoinlik kabi xislatlarini qoralaydi, inson ustidan har qanday zuravonlikni inkor etadi.

Ibn Sino yozishiga, insonning eng yaxshi fazilatlaridan biri – o'zining yomon ahloqiy xislatlarini anglab ularni yuqotishga intilishdir. Uning yaxshi xislatlari ichida boshqalarga e'tibor va gamxurlik bilan munosabatda bo'lishi maxsus urin tutadi. Kimki o'zining ahloqini tarbiyalash uchun o'z oldiga quygan vazifasini bajarib, o'z xulqini to'zatishtga intilsa, unga hech narsa qurqinchli emas.

Jaloliddin Davoniy kishilarni xususan, yoshlarning ahloqiy fazilatlarini egallab olishlariga aloxida e'tibor beradi va ahloqshunoslikni turt asosiy tushuncha – donolik, shijoat, adolat va iffatdan iboratdir deb hisoblaydi. Davoniy shijoatni yoshlar egallashi zarur bo'lgan asosiy xislatlardan biri deb biladi. U shijoatni keng maonoda tushunib, kamtarlik, mexr-shafqatlilik, sabr-matonat, vazminlik, chidamlilik xushfeollik, ruxan tetiklik va boshqa ahloqiy qoidalarni uning muhim xususiyati deb biladi.

Har qanday insonning eng mo''tabar orzusi, astoydil asosiy maqsadi – sog'lom, barkamol avlodni tarbiyalash, har tomonlama komil insonni voyaga etkazishdan iborat.

Sog'lom avlod deganda, eng avvalo, sog'lom naslni, nafaqat jismonan baquvvat, shu bilan birga ruhi, fikri sog'lom, iymon-e'tiqodi butun, bilimli,

ma'naviyati yuksak, mard va jasur, vatanparvar avlodni tushuniladi. Buyuk davlatni faqat sog'lom millat, sog'lom avlodgina qo'ra oladi. Mustaqil davlatimizning ertangi kuni, uning gullab-yashnashi va rivojlanishi ko'p jihatdan o'sib kelayotgan avlodning sog'lom bo'lishiga bog'liq. Bu esa o'z navbatida Vatanimizning kelajagi farzandlarimizning jismoniy, aqliy va ma'naviy kamol topish uchun qulay sharoitlar yaratishni taqozo etadi.

Oila jamiyat ijtimoiy to'zumining dastlabki va birlamchi buginidir. Ijtimoiy xayot oiladan boshlanadi. Oila – kishilarning qon-qarindoshlik, mulk va manfaat umumiyliги va talab-extiyojlarini birgalikda qondirishga asoslangan, maqsadi yagona bo'lgan mikroijtimoiy to'zilmadir.

Oilaning muhim vazifalaridan biri **iqtisodiy xujalik vazifasidir**. Bu vazifa oilaviy munosabatlarning quyidagi jixatlarini qamrab oladi: oilani yashash uchun moddiy sharoit bilan taominlash, oila a'zolarining moddiy va ma'naviy extiyojlarini qondirish, uy-ro'zgor va shaxsiy xujalik yuritish, oila budjetiga amal qilish, oilani boshqarish, sogliq va xayotiy faollikni saqlash.

O'zining ijtimoiy maqomi jixatidan ishchi va xizmatchi, dexqon, fermer, tadbirkorlar oilasi bo'lishi mumkin. Moddiy taominlanishiga ko'ra oilalar boy, urtaxol va kambagal bo'lishi mumkin. Oilalarning farqi odamlarning daromad va mol-mulk miqdori jixatidan tabaqalanishiga bogliq bulib, unda boy yoki kambagal hisoblanish uchun jon boshiga topiladigan daromad va oila ixtiyoridagi mol-mulk mezon qilib olinadi.

Oila a'zolarini 2 toifaga ajratish mumkin: daromad keltiruvchilar va boqimondalar. Oilalar har ikki toifaning nisbatiga qarab ham farqlanadilar. Bir oilada daromad keltiruvchilar ko'p bo'lsa, boshqasida boqimondalar ko'p bo'ladi.

Oilada bola to'g'iladi, tarbiya topib voyaga etadi. U ulgaygach moddiy neomatlar yaratadi va xizmatlar yaratishda qatnashadi hamda jamiyatning iqtisodiy salohiyati va uning milliy boyligini oshirishga xissa qushadi. Farzand voyaga etib oyoqqa turguncha, oiladan anchagina moddiy va ma'naviy sarfini talab qiladi.

Jamiyat rivojlangan sari bolalar tarbiyasi oila uchun serharajat ishga aylanadi va shu sababli ota-ona bolalar sonining meyorli bo'lishiga intiladi. Farzand tarbiyasi ularni ahloqiy etuk qilib shakllantirish, edirib-ichirish va kiyintirish bilan cheklanmaydi, balki ularni mustaqil xayotga tayyorlash, iqtisodiy sharoitga moslashtirishni ham bildiradi. Oila zimmasiga ulgaygan bolalarni amaliy ishga jalb etish ham yuklanadiki, bu ularni oilaviy biznesga tortish, uy xujaligini yurgizishga jalb etish va yollanib ishlab pul topishni ham taqozo etadi. Farzandli bo'lish har bir oilaning orzusidir. Bolalar ota-onaning sevinchi, qarilikdagi tayanchi, kundalik xayotining bezagi, ularning davomchisi bo'ladi. Bolali bo'lishning ma'naviy ahamiyati katta. Xozirgi vaqtda farzandli bo'lishning iqtisodiy ahamiyatiga ham e'tibor qaratiladi. YAxshi mutaxassis bulib etishgan bolalar oila daromadiga daromad qushadi, uni farovon qiladi. Daromad keltiruvchi ko'p oilalar odatda tuq yashaydilar, shu sababli bolalariga bilim va kasb berish uchun harakat qildilar.

Farzandlar ota-onani qarilikda moddiy jixatdan ta'minlab turadilar, ammo bu oilaning topish-tutishiga qarab farqlanadi. Iqtisodi rivojlangan mamlakatlarda ota-ona qarilikda yordamga muxtoj bulmaydilar, chunki nafaqa ularning tirikchiligiga etib ortadi. Iqtisodi uncha rivojlanmagan mamlakatlarda, qarilik nafaqasi kam bo'lgan ota-onalar bolalar yordamiga muxtoj bo'ladilar.

Farzandli bo'lish faqat iqtisodiy naf keltiribgina qolmay, harajat ham talab qiladi. "Topgan tutganing bola-chaqangga buyursin" degan gapning maonosi ham shunda. Bolalar harajati ularning tO'g'ilishidan boshlab, to ular voyaga etguncha davom etadi. Tirikchilikka doir barcha harajatlari, ovqatlanish, transport, aloqa va kommunal xizmatlar harajatlari bolalarni voyaga etkazish harajatlariga kiradi.

AQSHdagi hisob-kitobga qaraganda, bolani 18 yil tarbiyalash uchun 466 ming dollar sarflanar ekan. Bu harajatga ota-ona bolasiga sarflagan pul bankga qo'yilganda yoki unga aktsiya olinganda, keltiradigan daromad kiritilmagan. Tarbiya harajatlarini hisoblash juda muhim, chunki tarbiya qimmatlashayotgan sharoitda oila o'z imkoniyatiga qarab nechta farzand ko'rish ma'qul ekanligini aniqlashi mumkin. Xozirgi bozor iqtisodi sharoitida ishchi kuchi sifatiga quyiladigan talablar oshib boradi. Bunga tayyor turish va bolalarning kelajagidan xotirjam bo'lish uchun ularni xayotga puxta tayyorlash kerak. Oilada yaxshi tayyorgarlik kurmay usgan, bozor iqtisodi talabiga moslasha olmaydigan bolalarning katta bo'lganida ishsiz qolish xavfi bor, ammo ko'pchilik oilalar buni inobatga olmay xato qiladilar.

Barcha oilalarga xos bo'lgan umumiy vazifa **isteomol vazifasi** bulib, uy-ro'zgor xujaligini talab qiladi va mehnat resurslarini tayyorlash bilan bogliq bo'ladi. Bu xujalik oilaning umumiy mulkiga va topgan daromadiga tayanadi. Maolumi, oila nikoxdan boshlanadi. Bunda kelin va kuyov tomoni iqtisodiy munosabatlarga kirishadi. Turmush qurishning o'z harajatlari va foydasi bo'ladi. Harajat iqtisodiy va ma'naviy mazmunga ega. Iqtisodiy harajat bu turmush qurishning moddiy pul sarfi bulib, kelin va kuyovning o'zaro tanishishi, ularni unashtirish, tuyni o'tkazish, quda-andachilik, rasm-rusmlarini o'tkazish, yosh oila mulkini shakllantirish harajatlari bulib, uni har ikki tomon kutarishi kerak.

Oilaning dastlabki mulki: uy-ro'zgor asbob-anjomlari va jixozlarini tashkil qiladi. Bular o'zoq davom qiladigan o'zoq davrda ishlatiladigan tovarlardan iborat bulib oilaning mulki hisoblanadi. Oila mulki keyinchalik oila umumiy daromadining jamgarilishi asosida ko'payib boradi.

Oilal qurishning ma'naviy harajati – oila majburiyatining zimmaga tushishi, suqqaboshlik davridagi erkinlikni yuqotish, oila a'zolari raoyiga qarab ish qilish.

Farzandli bo'lish, ularni tarbiyalab voyaga etkazish, o'z nomini ardoqllovchi avlod qoldirish kabi extiyojlarni oiladan tashqarida qondirib bulmaydi. Mexr-oqibat, qon-qarindoshlik munosabatlari ham, eng avvalo oilada yo'z beradi. Uydagi xotirjamlik ishlovchining bilim, malakasini, mehnat unumdorligining oshib borishini taominlovchi omil bo'ladi. Oiladagi mexr-muxabbatning iqtisodiy jixati

shundaki, bu erda pul topib ro`zgor tebratish, uy yumushlarini bajarish kabi iqtisodiy vazifalar odilona va hamma tomonidan baxoli qudrat bajariladi. Oilaning iqtisodiy vazifalari hamjixatlik bilan bajarilgan joyda oila albatta mustaxkam bo'ladi, chunki oilaning moddiy manfaati amalga oshadi. Demak, oiladagi mexr-muxabbat moddiy zaminga ham tayanishi kerak.

Xonadonning iqtisodiy o`nglanishi uning barqarorligini kafolatlaydi. SHu sababdan oila xayotining iqtisodiy talablarini nazar-pisand qilmaslik mutlaqo notugri bo'ladi. Oila xonadonda er-xotin va bolalarning manfaatini uygulashtiradi, ularning saoy-harakatiga umumiy yunalish beradi. SHu bois ro`zgor tebratishning bir qator tamoyillari borki, ularga rioya qilish kerak bo'ladi:

1 tamoyil – oilaning xatti-harakati barcha oila a'zolari talab extiyojini qondirishga bo'ysunishi kerak;

2 tamoyil – oilaning iqtisodiy faoliyatiga oid qarori demokratik asosda qabul qilinishi kerak. Agar bu qaror oilaning ayrim a'zosi tomonidan qabul qilinib ijro etilsa, u oila boshqa a'zolarining manfaatlarini kafolatlashi talab qilinadi;

3 tamoyil – oila o`z farovonligini oshirishning eng nafli yulidan borishi kerak;

4 tamoyil – muqobil tanlov qoidasiga amal qilish kerak. Oilaning extiyoji ko`p bo'ladi, lekin uning daromadi cheklanib, hamma extiyojlarni birdaniga qondirishga etmaydi. SHu bois extiyojlarning eng zaruri tanlab olinib, ularni kam sarf bilan qondirilishi lozim bo'ladi;

5 tamoyil – iqtisodiy murosaga kelish qoidasiga amal qilish kerak. Bunda oila a'zolari oila farovonligini oshirish uchun kim nima ish qilishi, kimning individual extiyojini qachon qondirish haqida bir qarorga kelishi va uni hamjixatlik bilan amalga oshirishi talab qilinadi. Oiladagi murosani uyning yoshi uluglari xal qilish mumkin;

6 tamoyil – oila daromadlari va harajatlarini rejalashtirish, ularning bir-biriga muvofiqligini taaminlash, oila budjetidagi kamomadga yul bermaslik. Aytilgan tamoyillar oilaning ahil va barkamol bo'lishini, oila turmushini muttasil yaxshi bo'lishini taaminlashga qaratilgan.

YOsh oilalar faqat bir-birlarini tushunmaslik tufayligina emas, balki iqtisodiy sharoitni yulga quya olmay ham ajraladigan xollar ham uchraydi. SHunday oilalar borki, qiyinchilik bilan topilgan pulni osongina sovuradilar, ular oilaning iqtisodiy masalalari bilan yo`zaki shugullanadilar. Oila a'zolari oyiga qancha ish xaqi olishlari aniq, lekin shu pulni qaysi maqsadlarga, qanday sarflayotganliklari haqida ham hisob-kitoblar bo'lishi kerak.

Oila budjeti – oila a'zolarining oylik ish xaqi hisobidan to'planib, daromad va harajatlar yigindisidir. Budjet oila qancha daromad topib, qancha harajat qilganini, aniqrogi, oilaning kirim-chiqimi, ya'ni moliyaviy axvolini bildiradi.

Xozir oila daromadi haqida gap ketganda ko'pchilik fuqarolar uni ish xaqi bilan chegaralaydilar. Aslida xozir ish xaqining oila daromadlaridagi xissasi 34% dan oshmaydi. Chunki iqtisodiy erkinlik bo'lganidan kishilar turli faoliyat bilan shugullanib, daromad topishga urganib qoldilar. Muayyan bir oilani olsak, uning daromadini ish xaqi, nafaqa, stipendiya, dividend, foyda, ijara xaqi, tomorqadan tushgan pul kabi daromadlar tashkil etishi mumkin.

Qonuniy yul bilan boy bo'lishga yul ochish, pul topishga intilish, iqtisodiy usishga yordam beradi.

Oila o'zining xayotiy extiyojlarini qondirishi uchun moddiy maxsulot va xizmatlarni harid qiladi, yaoni u harajat qilishi zarur bo'ladi. Oila harajati bir tomondan uning extiyojiga, ikkinchi tomondan uning daromadiga bogliq bo'ladi. Daromad qanchalik ko'p bo'lsa, oilaning harid qobiliyati ham shunchalik yuqori bo'ladi, yaoni oila sarf-harajatlari ko'payadi.

Oila harajatlari uning tarkibiga ham bogliq. Oilaning ko'p yoki kam bolali bo'lishi uning boshiga daromadi va harajati miqdorini keltirib chiqaradi, chunki bolalar soni oilaning kundalik extiyojini o'zgartirib yuboradi. Oilaning harajati uning madaniy saviyasiga ham bogliq bo'ladi. Madaniyat yuqori joyda oila extiyoji soglom va oqilona bo'ladi. Oiladagi ko'pgina nourin sarflar uning isteomol madaniyatining pastligi bilan baxolanadi. Oila budjetini, xujaligini tugri boshqarish uchun yil boshida er-xotin bir yil davomida qilinadigan harajatlarni hisoblab chiqadi. Bu umumiy daromadga nisbatan olinadi. Harajatlar uch qismga ajratiladi:

1. Joriy yoki kundalik extiyoj, u darxol qondiriladi, chunki uni kechiktirib bulmaydi.

2. Zarur, ammo pul etishmaganidan qondirilishi kechiktirilgan extiyoj.

3. Bulgusi, ya'ni bir necha yildan keyin yo'zaga keladigan va qondiriladigan extiyoj.

Ota-ona bo'lgan har bir kishi bolalar oldida o'z obruini saqlashi va buning uchun quyidagi muhim printsiplarga bolalarga munosabati faqat o'z so'zini o'tkazish va zulm tarzida bulmasligi kerak:

- bolalarni sevis, ularni qanday bo'lsalar shunday tushunish va faqat shu asosda ularni tarbiyalash va kamol toptirish lozim;

- ota-onalarning nourin va xaddan tashqari mexr-muxabbati bolalar tarbiyasi uchun zararlidir;

- har bir bolaga individual yondashish kerak;

- bola necha yoshda bulmasin, uning shaxsiy qadr-qimmatini xurmatlash muhim;

- ota-onalar adolatli bo'lishlari kerak;

– ota-onalar har qancha band bo'lsalar-da, bolalar bilan bevosita muloqotda bo'lish uchun vaqt topishlari lozimki, buni hech narsa bilan almashtirib bulmaydi;

– oilada munosabatning demokratik usuliga amal qilish, ammo ota-onalar bilan bolalar urtasidagi munosabatlarda masofa bo'lishi zarur.

O'zbek xalqi xayotida bolalar tarbiyasiga ta'sir kursatadigan turli xil an'analar vujudga kelgan har xil xasharlar, bolalar uyinlari, ijodkorligi, tuy urf-odatlar, sayillar, to'g'ilgan kun, yigitlar bazmi, qiz majlisi, poyga, ko'rash uyinlari ana shular jumlasidandir. Milliy uyinlar va qushiq, raqslar oila an'alarini tuldirgan va bezagan.

Tayanch tuchunchalar:

Ahloq, odob, odamiylik, ota-ona burchi, suxbat, tushuntirish, ibratnamuna, ragbatlantirish, jazolash, masouliyat xissi, an'analar, udumlar. Sog'lom avlod, sog'lom fikr, sport o'yinlari, milliy o'yinlar, sport, turizm Jismoniy mashqlar. iqtisodiy tarbiya, oila budjeti, oila daromadi, oila harajatlari, boqimondalar, daromad keltiruvchilar,

Oila va uning vazifalari .Oilaning turlari.

Oila asli arabcha “aelmand nizemand” ma'nolarini anglatuvchi “oil”-so'zidan chikanligi “farxangi zaboni tojikyda” kayd etilgan. “Uzbek tilining ixoxli lugatida” ham bu suz er-xotin, ularning bola chakalari va eng yakin tugishganlaridan iborat biriga yashovchi kishilar majmui, uning erkak bilan kushiluvidan bola chakalari olamga kelib, ayolmandlik yuzaga kelgan, binobarin oila shakllangan.

I.A.Karimov: “Oila haqida gapirar ekanmiz avvalambor, oila xayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan mukaddas urf – odatlarimizni saklaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar kandy inson bulib etishishiga bevosita ta'sir kursatadigan tarbiya uchogi ekanini tan olishimiz darkor”deganida ham, oila va oilaviy munosabatlar ustivor masalalar katorida ekanligini ta'kidlaydi.

Oilaning ibtidoiy ko'rinishlari sanaluvchi qon-qarindosh oila, undan keyingi bosqichda esa punaunal oila, ya'ni bir guruxga mansub opasigillarning boshka jamoa guruxidagi erlarga xotinlik qiladigan oila dastlab oiladan iborat demografik birliknigina anglatadi. Kishilik jamiyatning ilk ibtidoiy boskichda poligam oilada monogam oilaga utish jarayonida yuzaga kelgan endoganik nikox ya'ni ibtidoiy urugchilik tuzumida kabila ichidagi guruxiy nikoxdan-bir kabilaga mansub erkak va ayol nikoxidan chetlanish, anikrogi o'ziga kabila kizi bilan nikoxlanishiga asoslangan ekzogam nikoxga utish insoniyatda nomus tuygusini anglash nakadar uzok vakt davom etgan jarayon bo'lganini kursatadi.

Oila tarixiy ketegoriya sifatida kishilarni tibiiy-biologik, iktisodiy, xukukiy, ma'naviy munosabatlarga asoslangan ijtimoiy birligi bulib, uning xilma-xil shakllari va kup kirrali vazifalari mavjud ishlab chikarish va ijtimoiy munosabatlarning tabiatiga jamiyat ma'naviyatiga va madaniy tarakkiyotning darajasiga boglikdir. Oila ana shu asoslarga tayangan xolda kishilik tafakkuri va ijtimoiy harakatning ulug kashfiyoti buldi. Mashxur faylasuf Santayana aytganidek, "Oila, bu-tabiatning shox asarlaridanbiri"ga aylandi.

Oila juftlik konuni asosida yuzaga keladi, bir erkakning o'zi yoki bir ayolning o'zi oila bula olmaydi. Oila er-xotindantashkari erning ota-onasi, farzandlari, uka-singillaridan iborat kup buginli xonadon.

Uning har bir a'zosi uz mavkeiga ega, shu oilaning ichki nizomiga buysunib yashaydi. SHu ma'noda oila jamiyat ichidagi jamiyatdir. Bu jamiyatning uz saltanati bor: bunda miglab tasodiflar jarayonida er-xotin muxabbati sinovidan utadi. Bunda ular bir-birini chukurrok tushunadilar, kadrlashadi, kechirimli bo'ladi. Er otaga, xotin onaga aylanadi, farzand tarbiyalanib, orzu xavas kuriladi. SHu ma'noda oila inson xayotiga tukislik baxsh etadi, jamiyatning mukaddas maskani sifatida sadokat sarchashmasiga aylanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, "qush uyasida ko'rganini qiladi" degandek, har bir bolani komil inson bo'lib etishishida oilaning o'rni beqiyosdir. Shuning uchun ham hozirgi kunda jamiyatimizda oilaga bo'lgan munosabat juda kattadir. Muhtaram Prezidentimizni har bir yilni munosib nomlanishi ham, mamlakatimizdagi oilaviy ahvolni yaxshilashga qaratilgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Shu jumladan, 1998 yil «Oila yili», 1999 yil «Ayollar yili», 2000 yil «Sog'lom avlod yili», 2001 yil «Onalar va bolalar yili», 2002 yil «Qariyalarni qadrlash yili» va boshqa yillarning ham shunday nomlanishida albatta oila va uning faravonligigaga qaratilgan. Qolaversa, 2013 yilni "Faravon turmush" yili deb nomlanishida ham albatta oila faravonligiga qaraatilgandir. Har bir yilning nomlanishi bilan birga shu yillarda qilinishi lozim bo'lgan amaliy dasturlar ham yurtimizning tinch va osoyishta yashashi uchun amaliy tadbirlar natijasidir.

Yosh avlodni barkomol inson qilib tarbiyalash har bir oilaning muqaddas burchidir. Jamiyatimizning eng kichik negizi oila sanalar ekan, oilalarimiz tinch, osoyishta, mustahkam va totuv oila bo'lishi uchun har birimiz ma'sulmiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. T., 1998
2. Karimov I.A. Ma'naviyat yuksalish yo'lida. T., 1999
3. O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»T., «O'zbekiston» 1997
4. Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тугрисида» ги конуни 1997 йил.
5. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2003.
6. Oila Kodeksi T., 1998 y.
7. Karimova O . «Oilada xuquqiy tarbiya ». T., 1996 y.
8. O`zbek pedagogikasi antologiyasi T.,1999
9. K.Xoshimov,S.Nishonova, M.Inomova . «Pedagogika tarixi», T., 1996
- 10.Minavvarov A.K.. «Oila pedagogikasi», T. , 1996.
- 11.M.Inomova «Oilada bolalarni manaviy axloqiy tarbiyasi», T., 2000
- 12.O.Xasanboeva «Oilada manaviy axloqiy tarbiya» T., 1993